

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

O'QITUVCHINING KASBIY ETIKASI VA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA

Qurbonova O'lmasoy Usmonovna,

*Buxoro davlat Pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrası dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

qurbonovaolmas@buxdpi.uz

Tosheva Zilola Kamolovna,

Buxoro davlat Pedagogika instituti magistranti.

Toshevazilol@gmail.uz

Annotatsiya. Maqolada kasbiy etikaning zamonaviy tushunchalari pedagog etikasi tajribasi asosida tahlil etilgan bo'lib, deontologiya, etika, kasbiy etikaning izohi keltirilgan. Shuningdek, maqolada pedagogik deontologiyaning xususiyatlari va uning shakllanishi masalasiga atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, kasbiy etika, xulq-atvor, deontologiya, odob-axloq, pedagogik kompetentlik, konsepsiya, ta'lim, ta'limot.

Аннотация. В статье анализируются современные понятия профессиональной этики на основе опыта педагогической этики, деонтологии, этики, поясняется профессиональная этика. Также в статье подробно рассматриваются особенности педагогической деонтологии и факторы ее формирования.

Ключевые слова: педагог, профессиональная этика, поведение, деонтология, манеры, педагогическая компетентность, концепция, образование, преподавание.

Abstract. The modern concepts of professional ethics are analyzed in the article based on the experience of pedagogic ethics, deontology, ethics, professional ethics are explained. Also, the article details the features of pedagogical deontology and the factors of its formation.

Key words: *teacher, professional ethics, behavior, deontology, manners, pedagogical competence, concept, education, teaching.*

Kirish. Pedagog bu mohir tashkilotchi, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish masalasini amalga oshira oladigan shaxs hisoblanadi. U insonlar bilan ishlaydi, jamiyatni boshqaradi, jamoa tajribasiga tayanib ish ko'radi, hamkasblarining maslahatiga quloq soladi, qo'lga kiritgan yutuqlariga tanqidiy yondashadi. Bunday kishi yuqori madaniyatli, keng mulohazali, tadbirkor, o'z ishining ustasi, jamiyatning haqiqiy ziyolisidir.

Darhaqiqat, pedagog barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs sifatida, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga namuna bo'lishi, shu bilan birgalikda, pedagogik mahoratini, pedagogik madaniyatini, pedagogik etikasini ham namoyon eta oldigan yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlashga hissa qo'shishi lozim. Pedagogik etikaga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmay, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oqilona tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan ogoh bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar

hamda ota-onalar bilan munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratadi [2].

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Husain Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqati, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirishgan. Binobarin, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan, pedagogik jarayon mohiyatini anglamagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlay olmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolaga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, uni tushuna olishi, pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay olishi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayon o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi talab etiladi.

Pedagogik nazariyada o'qituvchi mahoratini ikki xil tushunish mavjud. Birinchisi, pedagogik mehnatni tushunish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi tarbiyada

pedagog shaxsi asosiy o'rin tutadi. Mahoratni egallash uchun ko'p narsani bilish va bajara olish zarur.

"Men faqat "buyoqqa kel"ni 15-20 xilda gapira olganimdan, aft, tashqi qiyofa va ovozni 20 xil ko'rinishda bera olganimdan so'nggina haqiqiy pedagogga aylandim,- deydi buyuk pedagog A.S.Makarenko [1].

O'qituvchining pedagogik mahorati, deontologik madaniyati uning umumiy hamda kasbiy madaniyatining bir qismidir, uning asoslari ham ta'lim muassasalarida shakllanib boradi va ta'lim (kasbiy) faoliyati va jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhitidagi o'zgaruvchan talablarni hisobga olgan holda takomillashadi.

"Deontologiya" so'zi deontos – "shart", "burch", logos – "ta'limot", degan ma'noni anglatib, ingliz faylasufi Dj.Bentam mazkur tushunchani ilmiy jihatdan asoslagan. Uning "Deontology of science of morally" asarida deontologiya ya'ni, inson axloqi, etikasi haqidagi ilmiy fikrlar bayon qilingan. Keyinchalik Dj.Bentam tomonidan tavsiya qilingan "deontologiya" fani haqidagi g'oyalar nemis faylasufi I.Kant tomonidan rivojlantirildi. I.Kant deontologiyani "etika bu burch, majburiyat etikasidir" deb ta'rifladi [3].

Oksford izohli lug'atida, "deontologiya - axloqshunoslik va insonlarning xatti-harakatlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan fan sohasi", sifatida keltiriladi.

Bugungi kunda "deontologiya" inson tomonidan talab darajasida xulq normalarini va qoidalarini o'rgatuvchi fandır. Deontologiya so'zi kasbiy etikada keng qo'llanilib har bir kasb doirasida kasbning odob, xulq, qonunchilik, sud, pedagog, quruvchi, hamda davlat boshqaruvi tizimida burch, odob-axloq normalarini ifodalaydi. E.N.Jumanqulova, G.A.Karaxanova, G.M.Kodzhaspirova, A.E.Kuderina, M.Sh.Kunanbaeva, K.M.Levitan, "pedagogik deontologiya - o'qituvchining kasbiy burchiga muvofiq xulq-atvori haqidagi fan", deya ta'rif beradi [4].

Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub" asari 18-faslida o'qituvchilik mehnati mashaqqati xususida shunday deyiladi:

"Uning ishi odam tugul, hatto devning ham qo'lidan kelmaydi. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilar edi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi. Lekin shunisi ham borki, bolalar orasida fahmi-idroki ozlari bo'ladi.


Muallim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda, bolalarda uning haqqi ko'p, agar shogird ulg'aygach, podshohlik martabasiga erishsa ham

unga (muallim)ga qulluq qilsa arziydi". Darhaqiqat, Navoiy hazratlari ta'kidlaganlaridek, o'qituvchilik g'oyat mashaqqatli kasblardan sanaladi [5].

O'qituvchining deontologik tayyorligi va madaniyati pedagogga xosdir. Deontologik tayyorgarlik

pedagogning axloqiy burch vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ichki holatini tavsiflaydi va deontologik madaniyat uning kasbiy burchining aksidir. Uning asoslari oliy ta'limda yaratilgan va o'qituvchining doimiy kasbiy o'sishi tizimida doimiy e'tibor talab etiladi.

Yuqoridagilarni quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm - Pedagogik deontologiyaning shakllanishi

Demak, pedagogik deontologiya bu o'qituvchining kasbiy burchini halol, vijdonan bajarishiga mos keladigan axloqiy, huquqiy tamoyillar va qoidalar majmuidir.

Aytish mumkinki, pedagogik deontologiya axloqning ajralmas qismi bo'lib, pedagogik axloq tamoyillari va me'yorlarining shakllanishi va ishlash mexanizmining xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchining kasbiy faoliyatida uning amaliy harakatlarini tartibga soluvchi rolni o'ynaydi.

N.G.Chernishevskiy, tomonidan taklif qilingan o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan, uning kasbiy burchining asosini tashkil etadigan talablar quyidagilardan iborat: "O'qituvchi axloq nuqtai nazaridan o'zi tarbiyalanuvchisi qilishni xohlagan narsasi bo'lishi kerak". hech bo'lmaganda, u shunday bo'lishni chin dildan xohlashi va buning uchun bor kuchi bilan intilishi kerak". N.A.Dobrolyubov, "o'qituvchining vazifasi o'z namunasi bilan "axloqiy poklik, bolalarni sevish va ularning huquqlarini hurmat qilish

modelini" namoyish etish, deb hisoblagan.

Pedagogik axloq va deontologiya rivojiga P.P.Blonskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Ch.Valixonov, I.Oltinsarin, A.Kunanboyev asarlari katta hissa qo'shib, pedagogik deontologiyani nazariy asoslarini yaratdi.

O'qituvchining xulq-atvori, kasbiy fikrlash madaniyati, o'z ishini ilmiy asosda tashkil qilish qobiliyati, muloqotchan qobiliyati, kasbiy tajribasini tanqidiy baholash va takomillashtirish, o'z imkoniyatlarini tahlil qilish, to'g'ri qaror qabul qilish, jamoada qulay ruhiy iqlim yaratish qobiliyati va boshqalarda namoyon bo'ladi. O'qituvchi nafaqat o'z kasbining obro'sini oshirish, turli xil eksperimentlarni tashkil etish, kasbiy o'sish va boshqalar kabi muammolarning mavjudligi, hamda tizimdagi maxsus psixologik, axloqiy munosabatlar

"o'qituvchi o'zida", "o'qituvchi-talaba", "O'qituvchi-o'qituvchi", "O'qituvchi-jamoa" bo'lishi shart hisoblanadi:

Har bir professor-o'qituvchilar jamoasi eng yaxshi an'analarni qadrlashi, saqlashi va mustahkamlashi, ularni o'z saflariga qo'shilgan har bir yangi xodimga doimiy ravishda singdirishi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi bunday an'analarni o'rganishi va hatto oliy ta'limda o'qish jarayonida ham ularni hurmat qilishni o'rganishi kerak. Talabalar orasida ijodiy muhitni yaratishga harakat qilishi kerak.

Kasbiy faoliyat jarayonida o'qituvchining qat'iy e'tiqodi deontologik kredoga aylanadi ("kredo (lotincha kredodan - ishonaman, ishonaman) - e'tiqod, qarashlar, dunyoqarash asoslari") - o'qituvchining ichki dunyoqarashini shakllantiradi, bu regulyator bo'lgan kasbiy burch ongiga asoslanadi.

2-jadval. O'qituvchining deontologik tayyorgarligi komponentlari.

N	O'qituvchining deontologik tayyorgarligi asosi
1	pedagogik deontologiya asoslarini o'zlashtirish darajasi
2	kasbiy burchni anglash darajasi
3	kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari
4	har bir o'qituvchi shaxsiyati ijodining individual o'ziga xosligi

Ushbu tizim elementlaridan birini egallamaslik ("deontologik ong, deontologik o'z-o'zini anglash, deontologik ishonch, deontologik kredo") o'qituvchining deontologik tayyorgarligi to'liq shakllanmasligiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Demak, avvalo, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida, o'rta maktab, litsey, kasb hunar maktablari, kollej, texnikum o'qituvchilari, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilaridan boshlab

ta'lim tizimidagi barcha pedagoglarning deontologik tayyorgarligini shakllantirish zarurati paydo bo'ladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yo'nalishlari bo'yicha ma'lumot berish bilan birga, ularga kasbiy xulq-atvor, pedagogik deontologiya va kompetentlik, o'qituvchi-tarbiyachilik etikasi bo'yicha ma'lumot berish zaruriyati davr talabiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'll. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. -159 b.
2. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. -T.: BROK CLASS SERVIS, 2016. – 84 b.
3. Bentham J. Deontology // Bentham J. Deontology together with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983, p. 119-281.
4. Кертаева Г.М. Основы педагогической деонтологии. 2019. 6-40 б.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik-T.: Iqtisod-moliya, 2011. - 420 b.